# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKASI BO`LIMI

## ***QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA 2019 YIL YANVAR-NOYABR OYLARI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLAR***

**Sanoat mahsuloti hajmi 11569,9 mlrd.so'mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,6 % ni tashkil etdi.**

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2076,9 mlrd.so'mni va o'sish sur'ati 107,0 % tashkil etdi.**

**Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi 18,0 % ni tashkil etdi.**

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 23,2 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 11569,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,6 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 87,1 % tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishbing o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 8,5 % tashkil etti.

## ***2019 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da***




- **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (indeks - 100,9 % )**
- **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) (indeks - 105,3 % )**
- **Elektr gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash (indeks - 101,9 % )**
- **Suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (indeks-82,3 %)**

## *Tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.*

Tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 394,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,4 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo’iycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 11,3 % ga, chaqiq tosh 18,6 % ga oshganligini kuzatish mumkun. Gaz kondensati 6,5 % ga, tabiiy gaz 1,6 % ga pa’sayishi kuzatildi.

### *TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI*



## ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10080,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 87,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,8 % (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,3 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali 65,7 % (70,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 6,5% (4,7 %) va quyi texnologiyali 26,0% (22,4 %) tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi




O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, yumshoq bug'doy uni 2,3 % ga, bug'doy noni 1,1% ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 10,5%, polietilen 2,0% ga va  ga oshganligini va paxta tolasi, makaron mahsuloti, karbonat dinatriya o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.

# ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

| 2018 yil yanvar-noyabr ishlab chiqarilgan | 2019 yil yanvar-noyabr ishlab chiqarilgan |
|---|---|
| 1042199,2 mln.so'm | 1426698,8 mln.so'm |



Fizik hajim indeksi 107,0 % da

## ICHIMLIKLAR ISHLAB CHIQARISH

| 2018 yil yanvar-noyabr ishlab chiqarilgan | 2019 yil yanvar-noyabr ishlab chiqarilgan |
|---|---|
| 105688,0 mln.so'm | 149215,3 mln.so'm |



Fizik hajim indeksi 109,2 % da

# ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

**2018 yil yanvar-noyabr ishlab chiqarilgan**

**2019 yil yanvar-noyabr ishlab chiqarilgan**

## TEKSTIL MAHSULOTLARI



767518,6 mln.so'm

952386,3 mln.so'm

Fizik hajim indeksi 111,4 %

## FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI VA PREPARATLARI



26749,9 mln.so'm

46674,3 mln.so'm

Fizik hajim indeksi 120,2 % da

## Yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| | 2019 yilda ishlab chiqarilgan | 2018 yilda ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi, t | 34027 | 45034 | 75,6 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), t | 8971,4 | 9936,3 | 90,3 |
| Tozalangan guruch, t | 3963,9 | 3776,5 | 105,0 |
| Yumshoq bug'doy uni, t | 73493,7 | 71836,3 | 102,3 |
| Bug'doy noni, t | 2359,8 | 2333,1 | 101,1 |
| Makaron mahsuloti, t | 928,1 | 2725,6 | 34,0 |
| Yirik shoxli qoramollar uchin tayyor ozuqa, t | 37981,1 | 34356,6 | 110,5 |
| Aroq, ming.l. 100% spirt | 3872 | 3868,9 | 100,1 |
| Karbonat dinatriya, ming.t. | 171 | 171,4 | 99,7 |
| Polietilen, t. | 329863,5 | 323506,6 | 102,0 |
| Polipropilen, t. | 86240,1 | 85455,3 | 100,9 |

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 987,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,5 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga kamayishi va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 0,7 % ga oshganligi kuzatildi.

## SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 108,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 29,4 % ga pasayganligi va oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 24,3 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 32,7 % ga, xafsiz bo'lgan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 5,3 martaga oshganligi kuzatildi.

## ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2076,9 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,0% ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,0 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, % da



## ***ISTE’MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH***

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1068,1mlrd.so‘mni tashkil etib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 51,4 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 865,1 mlrd.so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 41,7 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 143,7 mlrd.so‘m hisoblanib jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 6,9 % tashkil etdi.

## ***2019 YILNING YANVAR-NOYABR OYLARIDA TUMANLARNING JAMI ISTE’MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA***

**Respublika bo'yicha iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng ko'p ulush Nukus sh. (respublika bo'yicha iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining 34% ulushini) To'rtko'l (8,9%), Xo'jayli (8,7%), Qo'ng‘irot (6,9%), Beruniy (6,7%) . Shu bilan birga eng kam ulush Mo'ynoq (respublika bo'yicha iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (0,9 %), Taxtako'pir (1,1%) va Qonliko'l (1,5%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.**



**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati.**




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushni Kegayli tumani (136,9 % ), Chimboy tumani (129,6 %), Qo'ng'irot tumani (113,0 %), Taxtako'pir tumani (108,2 %) tashkil etadi.

Shu bilan birga eng kam ulushi Ellikqal'a tumani (100,1%), Qonliko'l tumani (100,7%), Xo'jayli tumani(101,1%), To'rtko'l tumani (101,8 %) va Amudaryo tumani(102,1%) xissasiga tug'ri keladi.

## *Yirik va kichik biznes sub’ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %*




## *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi*

Hisobat davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6849,1 mlrd.so’mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobat davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumi ishlab chiqarishdagi ulushi 59,2 % ni tashkil etti.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmdagi ulishi, %**




● Xoriji investitsiya ishtirokidagi korxonalar
● Respublikaning boshqa korxonalari




● Xoriji investitsiya ishtirokidagi korxonalar
● Respublikaning boshqa korxonalari

## HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus sh (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 64,1 % ulushini), Taxiatosh tumani (8,2 %), Xo'jayli tumani (3,2 %), Mo'ynoq tumani (3,0 %) va Amudaryo tumani (2,7 %)  tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Taxtako'pir ( 0,4 %), Shumanay ( 0,5 %), Nukus   ( 0,6 %), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

### 2019 YILNING YANVAR-NOYABR OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA

| | | | |
|---|---|---|---|
| NUKUS sh. 64,1 | TAXIATOSH 8,2 | XO'JAYLI 3,2 | MO'YNOQ 3,0 |
| TO'RTKO'L 2,3 | QONLIKO'I 2,3 | QO'NG'IROT 2,4 | AMUDARYO 2,7 |
| KEGAYLI 2,3 | ELLIKQAL'A 2,0 | CHIMBOY 2,0 | QORAO'ZAK 2,0 |
| TAXTAKO'PIR 0,4 | SHUMANAY 0,5 | NUKUS 0,6 | BERUNIY 2,0 |

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi tahlili  Nukus shahrida (23413,5 ming.so'm), Taxiatosh (12914,4 ming.so'm), Mo'ynoq (10966,5 ming.so'm) tumanlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (6154,8 ming.so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

## Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi, (ming.so'mda) (2019 yil yanvar-noyabr oylari ushun)



Respublika bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha istemol tovarlari ishlab chiqarish 1104,9 ming.so'm bulgan holda Nukus shahrida 2231,0 ming.so'mni, Taxiatosh tumanida 1769,0 ming.so'mni, Xo'jayli tumanida 1491,3 ming so'mni tashkil qildi.

## ***Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga istemol tovarlari ishlab chiqarishi, (ming.so'mda) (2019 yil yanvar-noyabr oylari ushun)***



## SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Hisobat davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2685,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobat davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,2 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqal'a (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100%), Qorao'zak (99,99 %), Taxtako'pir (99,7%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (7,2 %), Mo'ynoq (12,4 %), Taxiatosh (12,4 %) tumanlarida kuzatildi.

## HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA



## Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.

Bugungi kunda respublikada 2308 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 703 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi.
Yangi tashkil etilgan korxonalarning qariyib 56,2 % Nukus shahri, Beruniy, Qorao'zak, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlariga to'g'ri keladi.

### 2019 yil 1 dekabr holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik




Q.R Statistika boshqarmasi
sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (61) 222-75-87